



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING TOVUSH MADANIYATINI TARBIIYALASH BO'YICHA PEDAGOGIK METODLAR

Azimbekova Shoxidaxon Xayrullojon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11532132>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 28<sup>th</sup> May 2024

Published: 9th June 2024

### KEYWORDS

*maktabgacha ta'lim,  
lisoniy libos, metod, nutqning  
tovuchi, davlat talablari, o'qish  
va savod, tayyorgarlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning  
nutqini rivojlantirishning pedagogik usullari haqida fikr  
bildirilgan.*

Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining tovush madaniyatini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining asosiy yo'nalishlaridan biri nutq, o'qish va savodga tayyorgarlikdan iboratdir. Bu umumiy vazifa – "Nutq, o'qish va savodga tayyorgarlik" quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, savodga tayyorlash.

Og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda asosan, bolalarning og'zaki nutqini o'stirishga, nutqni grammatik tomondan to'g'ri shakllantirishga: nutqning morfologik va sintaksis tomonlarini shakllantirishni davom ettirish: sodda va qo'shma gaplar tuzish, bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish, bolalarni gapirganda sonni otga, sifatni otga, sifatni fe'lga to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish, tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ravon gapirishga, mustaqil hikoya qilishga e'tibor beriladi. Og'zaki nutqini o'stirishda mustaqil hikoya qilishga o'rgatish katta o'rin egallaydi: bolalarni o'z hayotlarida uchragan voqealar, suratlariga qarab, tarbiyachining taklif qilgan mazmuni asosida hikoyalar to'qishga o'rgatiladi. Tayyorlov guruh bolalarining hikoyalari mazmunan bog'langan, ma'lum izchillikda grammatik tomondan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak.

Sharqning buyuk allomasi Kaykovus "Qobusnoma"da shunday bir ibratli hikoyat keltiradi: Bir kecha xalifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi, tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa tongda munajjim (tushni ta'bir qiluvchi)dan tushining ma'nosini so'radi. Munajjim shunday deydi: "Ey amiral mo'minin, sendan oldin barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi". Bu so'zni eshitgan Xorun ar-Rashid "Mening yuzimga bunday qayg'uli so'zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o'lsa, so'ngra men

qanday ishga yaraymanu qanday yashayman?" — deydi darg'azab bo'lib va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa munajjim chaqirib, undan tushining ta'birini so'raydi. Munajjim bunday deydi: "Ey amiral mo'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridanda uzoq bo'ladi". Shunda Xorun ar-Rashid deydi: "Barcha aqlning yo'li birdir va ikkovining ta'birining negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdir". So'ng munajjim yuz tillo berishni buyuradi. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma'rifatu ma'naviyatiga bog'liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to'g'ri va go'zal bo'lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Yurtimizda davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e'tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, va boshqa juda ko'plab hujjatlarda bu yo'nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 11- moddasida: «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi» - deyilgan.

Xulosa: Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining tovush madaniyatini tarbiyalashning eng asosiy omili unga bilim berayotgan pedagogning bilimli va tajribali bo'lishidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016.
2. Volkov, B. S. Psixologiya detstva: uchebno-metod. posobie / B. S.Volkov, N. V. Volkova. - M. : APO, 1997. - 152 s.
3. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
4. Jo'rayeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.
5. Abubakirova, Odina, and Maxliyo Oripova. "BOLANI ADAPTIV TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARIGA TAYYORLASHDA KUZATISH, NAZORAT QILISH VA HAMKORLIK DASTURI." *Бюллетень педагогов нового Узбекистана* 1.6 (2023): 24-26.
6. Nabiyevna F. O. Ways to Study Children's Literature and Children's Books //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 46. – C. 852-856.

7. Sobirjonovich S. I. et al. SOCIAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN  
//BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №.  
4. – C. 92-97.



INNOVATIVE  
ACADEMY